

CHET TILINI O'QITISHDAGI METODLARNING USTUVOR JIHATLARI

Askarova Marhaboxon Abrarhodjayevna

NTM Yangi asr universiteti Sharq filologiyasi kafedrası Katta o'qituvchisi

Tel: (+998 90 9779747) e.mail: "askarovamarhabo2022gmail.com"

Annotasiya: *mazkur ilmiy maqolada chet tili (Arab tili) ni o'qitish bo'yicha O'zbekistondagi va xalqaro til o'qitish metodlarining ustuvor tomonlari, xalqaro til bilish sertifikatlarini olishdagi samarali metodlar, axborot texnologiyalari orqali olinadigan imtihonlarda yuqori natijalar olishda qo'llaniladigan metodlar yuzasidan fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *arab tili, til o'qitish, turli xil metodlar, o'g'zaki imtihon, xalqaro sertifikatlar, yozma imtihon, nazariy bilimlar, Umon Sultonligi modeli, chet tilini o'qitish, mutaxassis kadrlar, haqiqiy va odilona baholash, til bilish darajalari, IT texnologiyalar, xalqaro til bilish imtihonlari, sun'iy intellekt.*

Barchamizga ma'lumki, xorijiy tillarni o'rganish davlat va jamiyat rivojida juda katta va muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, xalqaro aloqalarning samarali natija berishida, madaniyatlararo hamkorlik qilishida asosiy ko'prik vazifasini o'taydi. Chet tillarini bilish va o'qitish yurtimizda siyosiy darajaga olib chiqilgani bir nechta qaror va farmonlarda o'z aksini topmoqda. Chet tili mutaxassislarining xalqaro va mahalliy til bilish sertifikatlariga ega bo'lishlari, ta'lim sohasida muhim sanaladi. Bunda mutaxassisning chet tilini bilish darajasi namoyon bo'ladi. O'z navbatida, til bilish darajalari xalqaro va mahalliy til bilish sertifikatlari yordamida belgilanadi.

Xalqaro til bilish tizimlaridan CEFR, AT-TANAL, ACTFL kabilarni misol qilish mumkin. Arab tilida umumiy qabul qilingan til bilish darajalari quyidagilardir.

1. Boshlang'ich daraja (المستوى المبتدئ) bo'lib, 750-1000 ta so'zni qamrab oladi.
2. O'rta daraja (المستوى المتوسط) bo'lib, 1000-1500 ta so'zni qamrab oladi.
3. Yuqori daraja (المستوى المتقدم) bo'lib, 1500-2000 ta so'zni qamrab oladi.
4. Eng a'lo daraja (متميز و متفوق) bo'lib, 2000 dan yuqori so'zni biladi⁴⁴.

Darajalarga qarab til o'qitish metodlari tablab olinadi va bular esa to'rt mahoratlarda namoyon bo'ladilar. Bu mahoratlar, ya'ni ko'nikmalar:

1. Yozish (الكتابة)
2. O'qish (القراءة)
3. Tinglash (الاستماع)
4. Gapirish (التحدث)

Mazkur mahoratlarni muayyan daraja uchun to'g'ri tanlab olish yaxshi natija beradi. Masalan, A- Boshlang'ich daraja talabalariga asosan tinglash va o'qish mahoratlari ko'proq ishlatiladi. Bu kabi mahoratlar arab tilida "استقبالية" (Qabul qiluvchi) deb ataladi. Sekin asta yozish va so'zlash mahoratlari ham kiritiladi. Bu kabi til bilish mahoratlari arab tilida "انتاجية" (Ishlab chiqaruvchi) deb nomlanadilar.

⁴⁴ www.sqca.edu.om مصطفی (البرنامج التدريبي في تعليم اللغة العربية للناطقين بغيرها)

Yuqorida aytib o'tilgan 4 mahoratlar tilning o'qitishdagi an'anaviy yoki IT vositalari bilan bajariladigan zamonaviy metodlarda passiv yoki faol holatda amalga oshiriladi. An'anaviy metodda ham, IT orqali zamonaviy metodda ham guruh darajasiga qarab o'qish, yozish, eshitish, gapirish kabi mahoratlar nazarda tutiladi. Bu ikki metodlar darsning maqsadini qanday vositalar orqali yoritishi bilan farqlanadilar. IT zamonaviy metodda ko'proq axborot texnologiyalari orqali yondashish o'z aksini topadi. Arab tilini o'qitishda shuningdek, "SKYPE, ZOOM, MENTIMETR, WORDWALL, RENDER FOREST, CANWA, MISK" kabi electron dasturlar, "IDROK, RAVAQ, RANIYA AKADEMIYASI" kabi bepul platformalar orqali amalga oshirish mumkin. Bunday xalqaro dasturlar dars jarayonlarini samarali va qiziqarli bo'lishida yordam beradilar. Ko'rinib turibdiki bu ikki metodlarda maqsad bir xil, ammo ifodalovchi vositalar bir-biridan farq qiladi. Agarda til o'qitish metodlarida o'qituvchi va talaba o'rtasida muloqot, ya'ni kommunikasiya bo'lmasa, natija ham yaxshi bo'lmaydi.

Til jonli va insonga berilgan ne'mat bo'lgani sababli, ustoz va talaba o'rtasida muloqot muhim o'rin egallaydi. Dars mavzusini hayotiy va ijtimoiy voqea-hodisalarga bog'lash, savol-javob qilish, fikr bildirish talabani tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, gapirish mahoratini rivojlantiradi. Bunday o'qitish uslubi og'zaki imtihon olish jarayonida ham katta yordam beradi. Talaba bilan suhbatda avvalo o'zi haqida, kundalik hayot, jamiyat, olam haqidagi fikrlar talabani til bilish darajasini baholashda yordam beradi. Shu o'rinda Umon Sultonligidagi Sulton Qobus institutining arab tilini o'qitishdagi ba'zi muhim jihatlarini misol qilish mumkin. Avvalo, Umon Sultonligida arab tili rasmiy ona tili hisoblangani bois, arab tilini chet el fuqarolariga o'qitish masalalari bo'yicha metodlarni ishlab chiqishga o'z e'tiborini qaratadi. Bunda ko'proq grammatik qoidalar va atamalarga emas, balki tilni "Arab-Umon madaniyati" bilan bog'lagan holda o'rgatadigan "Kommunikativ metod" bilan o'qitiladi. Shuningdek, arab adabiy tilini o'qitish masalasi ham siyosiy darjada hisoblanadi. Imtihon olishda OPI tizimi asosida gapirish va eshitish mahoratlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Buning natijasida imtihonlar ham OPI (suhbatlashish) usulida olib boriladi. Og'zaki imtihon talabani haqiqiy darajasini ko'rsata oladi. Bu o'z navbatida xalqaro til bilish sertifikatlarni olishda asos bo'la oladi. Shu o'rinda Umon metodikasi asosida yuzma-yuz suhbatlashish imtihobi asosiy imtihondan avval bir necha bor amalga oshirilsa, o'quvchida to'liq ko'nikma shakllanishiga yordam beradi. Asosan universitet talabalaridan xalqaro sertifikatga tayyorlanayorgan yoki xorijda o'qish istagida yurgan talabalarni imtihon oldi masofaviy, electron vositalar va jonli holatda imtihon qilinsa, yanada yxshiroq natijaga erishiladi. Xozirda yurtimizda til bilish sertifikatlarni bir necha og'zaki imtihonlarsiz, tayyorgarliklarsiz to'g'risan-to'g'ri amalga oshiriladi. Bunday holatlarda natijalar kutilgandan ko'ra pastroq bo'ladi.

Shuning oldini olish va Talabani og'zaki imtihonlarda yuqori baholarni olishi uchun xar bir ta'lim muassasalarida og'zaki gapirish ko'nikmalarini shakllantiruvchi imtihon darslari o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va shuningdek xalqaro imtihonlarda o'zbek talabalri yuqori ballarni olishlariga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda arab tilini o'qitish xalqaro darajaga chiqayotganini guvohi bo'layapmiz. Bunda arab tili o'qitishda til darajalariga qarab guruhlarga bo'linishi, ularga mos ravishda tilni shakllantiruvchi mahoratlarning samarali ta'lim metodlari asosida qo'llanilishi, shunindek, xalqaro sertifikatlarga tayyorlovchi kadrlarning mavjudligi bundan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ne'matulla Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Abdulhakim Oripov "Arab tili grammatikasi" (To'ldirilgan nashr) Darslik. G'ofur G'ulom nomidagi nashryot matbaa-ijodiy uyi. T., 2024 I-II- jild
2. Яковенко Э.В. Арабский язык. Практический курс перевода. – М., 2019. (B2-C1)
3. Sobir al-Mashriq, Suad al-Havaliy, Abu Uvays Mahmud. At-Takallum. (A1-B2"التكلم")/ Darslik . – Qohira: Buruj books, 2019
4. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. В 2-х томах. -М., 2006. -944с
5. www.sqca.edu.om (أ.مصطفى)البرنامج التدريبي في تعليم اللغة العربية للناطقين بغيرها